ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-5

Milliy romanchiligimiz takomilida Said Ahmadning tutgan o‘rni

Boboniyozova Manzura Karim qizi
TerDPI 4-bosqich talabasi

Annotatsiya

Maqolada Said Ahmad ijodini o‘rganish tarixida umumlashmalar tomon burilish sodir bo‘layotganligi, “Ufq” trilogiyasi Said Ahmadga katta shuhrat keltirganligi hamda o‘zbek xalqiga xos bag‘rikenglik va oriyatlilik, fidoyilik va mehnatsevarlik kabi fazilatlar ulug‘langanligi aks etadi.

Kalit so`zlar: ijodkor jasorati, zahmatkash xalq hayoti, ilhom va mahorat samarasi, frontorti hayoti, davr ruhi.

Said Ahmad asarlari orasida unga eng shuhrat keltirgan asari “Ufq” trilogiyasi hamda mustaqillik davri mahsuli bo‘lgan “Jimjitlik”romani hisoblanadi.

1964-yilda yaratilgan “Ufq” romani yozuvchi ijodiy yo‘lidagi ikkinchi bosqichning eng katta yutug‘i bo‘ldi. Bu roman trilogiya bo‘lib, “Qirq besh kun”, “Hijron kunlarida”, “Ufq bo‘sag‘asida”nomli qismlardan iborat. Unda ijodkor jafokash qishloq kishilarining urush yillarida front orqasida ko‘rsatgan mehnat qahramonliklari, o‘zbek xalqiga xos bag‘rikenglik va oriyatlilik, fidoyilik va mehnatsevarlik kabi fazilatlari ulug‘lanadi. Bu trilogiyada xalqimiz hayotining uch muhim, og‘ir davrida amalga oshirilgan tarixiy va salmoqli ishlarga bosh-qosh bo‘lgan, kezi kelganda kishilar bilan birga tosh chaynab, tuproq yutgan, yerto‘lalarda qora qumg‘on choylarini baham ko‘rgan Usmon Yusupov, Yo‘ldosh Oxunboboev, Rahimberdi To‘xtaboev singari xalqparvar rahbarlarning yorqin timsollari yaratilgan.

Uning asarlari yuzasidan Abdulla Qahhor, O.Sharafiddinov, N.Karimov singari tanqidchilar mazmundor taqriz hamda maqolalar e’lon qilganlar. Tanqidchi U.Normatovning 1971- yili nashr etilgan “Said Ahmad” nomli kitobi bilan yozuvchi ijodini kengroq ko‘lamda tahlil etish boshlangan. I.G‘afurovning 1981- yilda bosilib chiqqan “Prozaning shoiri” nomli kitobi esa Said Ahmad ijodini o‘rganish tarixida umumlashmalar tomon burilish sodir bo‘layotganligidan dalolat bergan edi.

“Ufq” trilogiyasi Said Ahmadga katta shuhrat keltirdi. Asar o‘zbek, qoraqalpoq, qozoq, litva tillaridan tashqari, rus tilida uch marta nashr etildi. Asarning telepostanovkasi Moskva televideniesi orqali ikki kun namoyish etildi. Roman shunchalik muvaffaqiyatli chiqdiki, bir paytlar yosh yozuvchini qattiq tanqid qilgan Abdulla Qahhor 1965 - yili o‘zining “Ilhom va mahorat samarasi” nomli maqolasida asarni quyidagicha baholadi: “Said Ahmad bundan ko‘p yillar muqaddam qo‘liga adabiyot tanburini olib chertganda, qo‘li kelishganini ko‘rib, yaxshi sozanda bo‘lib, yaxshi-yaxshi mashqlar chalishini orzu qilgan edik. Shu orzu ushalib kelayotibdi. “Ufq”uning ilhom va mahorat bilan chalgan mashqidir”[3].

“Ufq” trilogiyasida muallif o‘z oldiga o‘zbek xalqining Katta Farg‘ona kanali qurilishi chog‘idagi, urush davridagi va undan keyingi mashaqqatli yillardagi qahramonona mehnatini hamda murakkab ziddiyatli hayotini keng ko‘lamda qamrab olish maqsadini qo‘ygan edi. Agar unda Tursunboyning qo‘rqoqligi va Ikromjonning o‘limi sabablari yaxshiroq ochilganda, shu kabi yetarlicha dalillanmagan o‘rinlar kamroq bo‘lganda hamda syujet chiziqlari pishiqroq bog‘langanda, trilogiya adabiyotimizda yanada ulkanroq voqea darajasiga ko‘tarilishi mumkin edi.

Ushbu romanda xalqimiz hayotining kichik, biroq mazmun mohiyati jihatidan juda dolzarb davri aks ettirilgan. Xaiqmizning II jahon urushigacha bo‘lgan hayoti, II jahon urushi va undan keyingi

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-5

yillardagi mislsiz fidoyilik, qahramonliklar ko‘rsatgani badiiy hamda o‘quvchiga tushunarli tilda ifodalab beriladi.Uzunligi ikki yuzu yetmish kilometr bo‘lgan Katta Farg‘ona kanalining qo‘l kuchi bilan 45 kunda qazib bitkazilishi misli ko‘rilmagan jasorat, har qanday jahon rekordini ortda qoldirarli ulkan mehnat natijasi edi.Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, kanal qazish ishlariga 160 mingdan ziyod kishi qatnashgan, kanal trassasida17,8 million metr kub tuproq mexanizmlar yordamida qazilgan. Urush yillarida xalqimizning front va front ortidagi og‘ir mehnati, urushdan keyingi tiklanish davridagi chekkan zahmatlarining har bir kuni jasorat edi.Bu ulkan ishlarning qo‘li qadoq jonli odamlar, ularning murakkabliklar to‘la suronli taqdiri, orzu-armonlari bor edi.

([3].A.Qahhor. “Ilhom vamahorat samarasi.”T.-1965y. 87-b.)

Roman uchta katta davrni o‘z ichiga olgani uchun uni roman-trilogiya deb ataymiz. Asarning dastlabki kitobi “ Qirq besh kun”, ikkinchi kitobi “ Hijron kunlarida”, uchinchi kitobi esa “ Ufq bo‘sag‘asida” deb nomlangan. “ Qochoq” deb shartli nomlangan parcha romanining “ Hijron kunlarida” deb ataluvchi ikkinchi kitobidan olingan.

E’tibor bersangiz , ushbu parcha juda og‘ir o‘qiladi, aniqrog‘i, uni o‘qish emas, his qilish og‘ir. Urush qahramoni Ikromjon Usmonov frontdan bir oyog‘idan ajrab qaytib keladi, ortidan unga berib ulgurilmagan ordeni ham tantanali topshiriladi. Bundan ruhlangan Ikromjon va uning rafiqasi Jannat xola barcha bilan barobar mehnat qiladilar. Biroq ular hayotida falokat yuz beradi – ularning yer-u ko‘kka ishonmay o‘stirgan yolg‘iz o‘g‘illari Tursunboy urushga ketayotib qochadi, ularning yuzini yerga qaratadi. Eng yomoni, Tursunboy qochib kelib, ular o‘zlashtirayotgan to‘qayzor ichkarisiga joylashib olgan. Bu sirni onasi Jannat xolagina biladi. U ikki o‘t orasida. Bir tomondan o‘g‘lining vatanga xiyonati ich-ichini o‘rtasa, ikkinchi tomondan, yolg‘iz farzandiga joni achiydi. Qochoq o‘g‘lini boqish, uni kishilar ko‘zidan yashirish bilan ovvora bo‘lib, tinkasi qurigan mushtipar ona kasallanib qolib vafot etadi. Ikromjon o‘g‘lining isnodiga chiday olmay yurganda, to‘qayda Tursunboyni uchratadi. Ota va bola o‘rtasida jiddiy to‘qnashuv bo‘lib o‘tadi. Ikromjon o‘g‘lini elu-yurt oldida uzr so‘ratmoqchi, diliga insof solmoqchi bo‘ladi.Biroq nobakor o‘g‘il ko‘nmaydi ,ota qo‘lidan qochib ketadi. Qochoq o‘g‘il Tursunboy ota diydoridan, ona mehridan, yor-birodarlari davrasidan olisda, chaqirsa ovoz yetmaydigan joyda quvg‘in bo‘lib, olamdan o‘tadi”.

Asarda Tursunboy qilmishi qoralanadi, hatto otasi ham xiyonatkor o‘g‘ilni mahv etishga tayyor. Avvalo, ota-onadan ham ayb o‘tgan: ular yolg‘iz o‘g‘illarini erka, tantiq qilib o‘stirganlar. Bugun erka farzand ularni el orasida sharmisor qilyapti. Biroq bu ayblovlar zamirida urushni qoralash, bu qirg‘inbarotni o‘ylab chiqarganlarni la’natlash yotibdi. Urush ota-onalarni farzand dog‘ida kuydirdi, bolalarni yetim qildi, mamlakatni xarobaga aylantirdi. Barcha baxtsizliklarning sababi – ana shu urush.

So‘z garchi Tursunboy taqdiri haqida ketayotgan bo‘lsa-da, asarda u yolg‘iz personaj hisoblanmaydi. Yozuvchi “Ufq” romanida xalqimizning urush ortidagi mehnati, mashaqqati hayotini Ikromjon, Jannat xola, To‘lanboy, Nizomjon, Asrora, Dildor, Zebi, A’zamjon kabi qator qahramonlar taqdiri orqali yorqin tasvirlaydi.

Ustoz adib Abdulla Qahhor yozuvchining ushbu asaridagi mahoratini shunday ta’riflaydi: “Bu kitobni kitobxon boshdan-oyoq shavq bilan, hech qayerda turtinmasdan, diqqati susaymasdan, ishtahasi bo‘g‘ilmasdan o‘qib chiqadi… Kitobda qimirlagan har bir jonning qayg‘usi, quvonchi, qilish-qilmishi, muhabbati, g‘azabi, og‘zidan chiqadigan har bir so‘zi rost…”

Darhaqiqat, ushbu asar odamga quvvat beradigan umid, uning boshini “toshdan” qiladigan ishonch barq urib turgan haqiqiy hayot manzarasidir”. Ushbu roman uchun bundan-da yuksak baho bo‘lmasa kerak.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

“Jannat xola endi cho‘ldan bir qadam ham boshqa yoqqa jila olmasdi. Uning yuragi shu cho‘lda. To‘qayga pinhoniy qatnab yurishiga, chodirdan ustara yo‘qolishiga sabab bor edi.

Tursunboy shu to‘qayda. Uning qamishlar orasida yashirinib yurishini Jannat xoladan boshqa hech kim bilmasdi.

Kecha Jannat xola o‘g‘lining oldiga borganda soqoli o‘sib ketganini, sochlari quloqlaridan osilib vahshiy qiyofasiga kirib qolganini ko‘rgan edi. Shuning uchun ham u erining ustarasini olib borib bergandi.

Ikromjon qishloqqa ketdi. Endi tushlik paytida ham o‘g‘liga ovqat olib borsa bo‘ladi.

Hamma shudgorga chiqib ketgan. Chodirlar oldida hech kim yo‘q. Jannat xola shoshib un chalib quymoq soldi-da, boltani qo‘liga olib, to‘qayga qarab ketdi.

Tursunboy qamish kappa oldida tizzasini quchoqlab darvish qiyofasida o‘tirardi. U turgan joyiga odam qadami yetmagan edi. U ko‘pdan beri birov bilan gaplashmagan, dunyoda nimalar bo‘layotganidan bexabar edi. Sovun tegmagan betlari kir, ham ko‘rpa, ham to‘shak o‘rnini bosgan to‘nining yenglari titilib, etaklari balchiqqa belanganidan dog‘ bosib ketgandi. Uning bir vaqtlar qizlarni shaydo qilgan qop-qora ko‘zlari endi ma’yus, atrofga ma’nosiz boqardi. Kecha sahar paytida osmonu falakda turna o‘tdi. Tursunboy o‘shanda ham uyg‘oq edi. Turna ovozi unga juda ko‘p narsalarni eslatib ketgan edi.

Turna qanotida bu cho‘llarga bahor olib keldi-yu, ammo Tursunboyning qalbida uyilib, muz bo‘lib yotgan qorni eritolmaydi. Unga bahor kelmadi.

U har kuni to‘qay kezib, qamishlar orasidan ishlayotgan hamqishloqlarini ko‘rib o‘tiradi. Ularning bari tanish odamlar. Faqat bittasi begona. Bu yigit kim bo‘ldi ekan?...

Jannat hola chayla oldiga kelganda Tursunboy qimirlamay o‘tirardi.U shoshib onasi qo‘lidan tugunchani oldi-da hech qayoqqa qaramay, hech narsa demasdan o‘zini ovqatga urdi…” Ushbu parchadan ko‘rinib turibdiki, Jannat hola juda hokisor, oilasi va yolg‘iz farzandi uchun hech narsadan qaytmaydi;hatto o‘z turmush o‘rtog‘iga yolg‘on gapirib ,uni aldab-o‘g‘lini changalzorda yashirib yuribdi.Biroq, oqibatsiz farzand Tursunboy buning aksi.Talaba bu kabi parchani o‘qish barobarida Tursunboyning hatti-harakatlaridan to‘g‘ri xulosa chiqarib olishi lozim bo‘ladi.Aks holda asardan ko‘zlangan maqsadga erisholmay qolamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Said Ahmad. Tanlangan asarlar. III jildlik. I jild. Hikoyalar. -T.: ShARQ NMK, 2000. - 304 b.
2. Said Ahmad. Tanlangan asarlar. III jildlik. II jild. Hajviyalar. -T.: ShARQ NMK, 2000. - 384 b.
3. Said Ahmad. Tanlangan asarlar. III jildlik